



**XONANDALIK KO 'NIKMLARINI MUKAMMAL O 'RGANISH
JARAYONLARIDA YUZAGA KELADIGAN KAMCHILIKLAR VA
YUTUQLAR.**

Po'latov Javohir Jahongir o'g'li

Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Akbarov Mohigul Gulomovna

Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

***Amnotatsiya:** Ushbu maqolada xonandalik ko'nikmalarini mukammal o'rganish jarayonlarida duch kelinadigan kamchilik va ularni hal etishda erishilgan yutuqlar hamda o'rganuvchi talaba ijrochili san'atini o'rganish jarayonlarida qanday muhim omillarga e'tibor qaratishi lozimligi, o'qituvchi xonandalik savodini o'rgatish jarayonlarida foydalanadigan ilmiy izlanishlari hususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** xonandalik, ijrochi, musiqa savodi, qo'shiqchilik, malaka, ko'nikma, tajriba, ustoz –shogird an'analari.*

**SHORTCOMINGS AND ACHIEVEMENTS THAT OCCUR IN THE
PROCESSES OF PERFECT STUDY OF SINGING SKILLS.**

Po'latov Javohir Jahongir o'g'li

Gulistan State University Faculty of Art Studies, Phase I student

Akbarova Mohigul Gulomovna

Teacher of the Faculty of art studies, Gulistan State University



Annotation: *this article focuses on the shortcomings found in the processes of excellent learning of singing skills and the achievements in solving them and what important factors the student is paying attention to in the processes of learning the art of performing, is told that the teacher will lead the scientific research that he uses in the process of teaching song literacy.*

Keywords: *singing, performer, musicology, singing, competence, skill, experience, teacher –disciple traditions.*

Bugungi kunga qadar har qanday sohada ta'lim tarbiya jarayonlari shu qadar jadallashi, rivojlanib keng ko'lamga ega bo'ldiki pedagog sifatida faoliyat olib borish anchayin murakkablashib o'z ustida ishlashning maksimal darajasini talab etmoqda. Ham milliy qadryatlar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida ish olib borish pedagoglarga qo'yilgan asosiy talablardan bo'lsa, nazariy bilimlarning amaliyot bilan turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim - tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi - talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Xonanda talabalarni rivojlantirish va tarbiyalash, ularning ijro mahoratini oshirish muammosiga bugungi kunda musiqashunoslik va pedagogikada katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda musiqa pedagogikasi talabalarning kuylash va musiqiy eshitish qobiliyatlari tizimini shakllantirish muammosini o'rganishda ma'lum yutuqlarga erishmoqda. Xonandalik yo'nalishida bilim berish boshqa sohalarga nisbatan anchayin murakkab va uzoq vaqt talab etadi. Ushbu soha ustoz - shogird an'analari hamda asriy davom etayotgan ijro an'analari taqlidni ham talab qiladi.



Umuman olganda ta'lim berish jarayoni hech qachon onson kechmagan ham. Bugungi kun zamonaviy yondashuvda kompetensiya tushunchasi keng tarqalib har bir sohaning o'z kompetentligi mavjud. Hususan pedagogika sohasida ham pedagogic kompetensiya tushunchasi shakllanib bo'lgan.

Xonandalik sir sinoatlarini o'rganish ko'rinishidan soda va onson jarayondek tuyulsada juda kata mehnat va qat'iyatni talab etadi. Chunki musiqa ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan, o'qituvchi talabaga xonandalik savodini o'rgatish jarayonida musiqa ohangini chalib yoki kuylab ko'rsatganda ohang va so'z, asosan, tinglash bilan qabul qilinadi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi, ya'ni amaliyotdagi jarayondadir.

Darslarda talabaning ijro ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan tamoyillarga tayaniladi. Ijro ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashqlarda asosiy vazifalaridan biri talabaning har vaqtda amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan mustahkam bilim, ko'nikma va malakalami egallashlaridir. Ya'ni bu jarayonda mustahkamlik tamoyillari talabalarni tez va aniq eslay oladigan, xotirada uzoq saqlanadigan, hamisha ijroda mohironalik bilan qo'llay oladigan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur ekanligini anglatadi. Mashg'ulotlarda dasturlangan bilim beribgina qolmay, balki bo'lajak ijrochilarning xonandalik asoslarini mukammal egallashlarini ham ta'minlab berishi kerak. Ustozlar bu jarayonlarda mustahkamlikni ta'minlaydigan tizimli usullar hamda vositalarni mukammal bilish bilan birga mukammalilik bilan talabaga ham o'rgata olishi kerak. Ijrochilik uslublarini idrok qilishni shakllantirish, qo'shiqni badiiy ijro etish va musiqa savodidan olgan bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini ta'minlash hamda o'quvchilarni musiqiy savodini rivojlantirish Joriy takrorlash yoki boshlang'ich mustahkamlash o'quvchilarning hozirgina tinglagan musiqasini esga tushurishni takrorlash orqali amalga oshiriladi. Takrorlashning bu turi shakllangan tasavvur va tushunchalarning yo'qotilishini oldini olish uchun bevosita o'qituvchi tinglangan



musiqa haqidagi suhbatidan so'ng amalga oshiriladi. Umumlashtiruvchi takrorlash kengroq darajadagi umumlashtirishlarni qo'llash imkonini beradi. Butun mavzu o'tib bo'lingach, xulosalar chiqariladi, musiqiy faoliyat turlari o'rtasidagi umumiy aloqadorlik o'rganiladi, bilimlar tartibga solinib tizimlashtiriladi. Doimiy takrorlashlar, kamchiliklar ustida ishlash egallashi lozim bo'lgan asosiy g'oyani ajratib olib, aynan shu kamchilik ustida qayta qayta mashqlar bajarishni talab etadi va natijada mukammal ijroni ko'rsatish imkonini beradi.

Ovozni to'g'ri shakllantirish uchun, odatda, vokal darsida alohida maqsad va vazifalar ustida ishlanadi. Alohida mushak texnikasi ko'rinishida, masalan, nafas olish, og'izni ochish, esnash qobiliyati va boshqalar o'zlashtiriladi. Alohida-alohida amalga oshiriladigan barcha qisman mayda vazifalar, keyin yaxlit muvofiqlashtirishga birlashtirilishi kerak. Bular kelajakdagi umumiy mahoratning bir qismidir. Vokal diksiyasi ustida ishlashni birinchi darslardan oq boshlash kerak. Xonandalik ko'nikmalarini egallash jarayonlarida avvalo talabaning ovoz imkoniyatlarini aniqlab olish va undagi ijroga moyillik darajasini bilish shart. Ovoz bilan ish boshlashda, talaba ovozining eng jarangdor notalardan oltin nuqtani belgilash hamda diapazonning markaziy qismidan ovoz mashqlari ustida ish boshlash maqsadga muvofiq. Haddan tashqari baland va past notalar ustida hech qachon dastlabki mashqlardayoq eksperiment o'tkazish juda kata hato. Agar ijrochi talaba ovoz ustida ishlash jarayonlarida yuqori pardalarda sinalmagan notalarda kuylasa va uning ovozi chegarasiga teng bo'lmagan notalarda xato kuylab qo'ysa ovoz apparatlari shikastlanishi mumkin hattoki shunday hatolar natijasi o'laroq qayta kuylay olmay qolganlik holatlari ham uchragan. Shuning uchun ilk mashg'ulotlardan meyoriy darajaning eng past nuqtasiga teng mashg'ulotlar olib borilib, keyinchalik o'rta meyo va eng yuqori darajagacha pog'onama pog'ona chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muhim nuqta - bu to'g'ri tanlangan ovoz kuchi bo'lib, uning yordamida ovoz ustida ishlashni boshlash qoniqarli samara beradi. Ilk ovoz ustida ish boshlash



jarayonida balan yoki past ohangda kuylash ko'zda tutilgan samara bermaydi, sababi ko'pchilikda baland ovozda qo'shiq aytish vokal apparatining haddan tashqari kuchlanishi bilan bog'liq bo'lib, ovozning eng yaxshi tembr fazilatlarini namoyon qilishiga imkon bermaydi, shuningdek, butun diapazonda ovoz tekisligiga erishishga to'sqinlik qiladi. Ishning dastlabki bosqichlarida past ovozda qo'shiq kuylash esa "tayanchdan tovushni olib tashlash", "nafassiz" qo'shiq aytishga olib keladi. Pianoda kuylanadigan jarayonlar aslida qo'shiqchidan forte dinamiqasida ijrodan ko'ra ko'proq kuch talab qiladi. Vokal mushaklarining yaxshi ishlashi, ular ostida yetarli havo bosimi rivojlangandagina kutilgan natijani beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nafas olish laringeal sfinkterning harakatini faollashtiruvchi vositadir va shuning uchun nafasni etarlicha ushlab turish zarur. Mashq kuylash jarayonida talabadan, barcha holatlarda, hujumning aniqligi va intonatsiyaning tozaligi talab qilinishi kerak. Mashqlarni qo'shiqlar, kuyning bo'laklari, musiqiy fikrlar sifatida berish kerak. Talaba bilan ilk bora qo'shiq kuylashni boshlaganingizda, darhol uning ba'zi tashqi ko'rinishidagi bosh, og'iz, ko'krak qafasi kabi ovoz o'tib boradigan nuqtalarga e'tibor berishingiz kerak. Ko'plab vocal ustozlari qo'shiq aytishda ikkala oyoqqa yaxshi tayanish, umurtqa pog'onasini to'g'rilash va ko'krakni oldinga siljitish kerak deb hisoblashadi. Boshqalar esa, biron bir ma'lum bir holatga o'rnatmasdan, tananing erkin holatini taklif qilishadi. Qo'shiq kuylashda tana postanovkasi masalasini ikki tomondan ko'rib chiqish kerak - estetik nuqtai nazardan va ovozning shakllanishiga ta'siri nuqtai nazaridan. Sahnada chiroyli turishni biladigan xonanda o'z chiqishlarining muvaffaqiyatini allaqachon ta'minlagan bo'ladi. Tananing tabiiy holati, bo'sh qo'llar, gavdaning tik holati kabi odatlari mashg'ulotning dastlabki bosqichlaridanoq tarbiyalanishi kerak.¹ Ovozni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri talabani o'zini o'zi boshqarishni o'rgatishdir. Talabani boshidanoq uning qo'shiq aytishiga, ovozli xotira va eshitishda qayd etilishi kerak bo'lgan tebranish, mushak, turli jismoniy

¹ VOKAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI Mansurbekova Feruza Gayratovna. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337



va intellektual his-tuyg'ularini kuzatishga o'rgatish kerak. Talaba o'z qo'shiqchiligiga baho berishni, kamchiliklarni tuzatishni o'rganishi kerak. Ovoz hosil bo'lish paytidagi harakatlarning umumiy majmuasidan tovush hujumi aniq farqlanadi. Ovoz chiqarganda uni eshitish, rezonator, nafas olish va boshqa sezgilar yordamida boshqarish oson. Qismlar ustida ishlash o'z-o'zidan maqsad bo'lib qolmasligi kerak. Talabani vokal va musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish jarayonini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin.

- Birinchi bosqich - ovoz apparatining to'g'ri ovoz faolligini, ba'zi unilarda va ovoz diapazonining cheklangan qismida to'g'ri tovush hosil bo'lishini topish.
- Ikkinchi bosqich - vokal va musiqiy eshitish qobiliyatlarini saqlash va takomillashtirish, har xil turdagi tovush yo'naltirishni o'zlashtirish, ovoz apparatining to'g'ri tamoyillarini butun diapazonga o'tkazish.
- Uchinchi bosqich - avtomatlashtirish, silliqlash va ish uchun ko'plab variantlarni topish. Bu avtomatizmga olib keladigan to'g'ri tovush hosil qilinishi va yo'naltirilishi bosqichi, ovoz apparatining to'liq "erkinligi" va ovozni to'g'ri tovush yo'naltirilishi chegarasida o'zgartirish qobiliyatidir²

Xonandalik ko'nikmalarini egallash uchun olib borilayotgan darslarining samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchi ijodiy va ijobiy xususiyatlariga, uning tajribasi hamda kasbiy bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Badiypedagogik material o'qituvchi tomonidan diqqat bilan tanlanishi kerak. Materialni musiqiy, vokal, texnik va ijro qiyinchiliklari nuqtai nazaridan tahlil qilish qobiliyati o'qituvchining zaruriy sifatidir. Keng qamrovli pedagogik musiqiy materialga ega bo'lish va uni qo'llay bilish pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining shartlaridan biridir. Asarning sifatli ijro etilishi uchun uni o'rganish va kuylash

² O'QUV JARAYONIDA VOKAL VA MUSIQIY ESHITISH QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH Alimbekova Oydin O'zDSMI SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 2



texnikasini yaxshi o'zlashtirilishidadir. Yuqoridagi sifatlarga ega ustozdan bilim olgan ijrochi talaba avvalo shakllangan ijro mahoratiga, nazariy va amaliy jihatdan keng va rang-barang musiqiy repertuarni o'zlashtirishga muvofiq bo'ladi. Musiqiy ijrochilik talablari talabani kerakli ko'nikmalarni topishga majbur qiladi, bu esa dinamik va tembr ovoz imkoniyatlarini rivojlanishiga olib keladi. Shunday qilib, vokal va eshitish qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirish muammosi har doim vokal o'qituvchilari oldida turgan, nazariyani va o'qitish usullarini takomillashtirish masalalari doimo dolzarb bo'lib qoladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari shuni tahkidlaydiki, ijodiyotni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun o'qish jarayonida bo'larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki biz talaba va ustozlar o'rtasidagi ijodiy jarayonlarda talabalarning ijobiy hususiyatlarni shakllatiruvchi mashg'ulotlar davomida nafaqat pedagogic hamda psixologik yondashishi maqsadga muvofiq bo'ladi, sababi ijodkor ruxiyatan tasirchan va tez emotsiyaga berilish hususiyatlari yuqori bo'ladi. Ayni shu sabablar tufayli nozik qalb egalariga san'atning sir sinoatlari xonandalik savodini o'zlashtirishlari uchun ijodkorona yondashib, nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirgan holda ta'lim berish ko'zlangan maqsadga yetish kaliti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D. Omonullayeva. Darsda xalq merosi o'rganish. Boshlang'ich ta'lim 2003y
2. Barno Shaxnazarova Xonandalik uslubiyoti asoslari o'quv qo'llanma Toshkent 2017
3. Muxamedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari ; 2007.
4. An'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislariga bilim berishda pedagogik kompetensiyalar Moxigul Gulomovna Akbarova "Oriental Art and



Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 /
December 2022

5. Akbarova M, Tadjibayev D. The role and importance of the art of national maqom in the development of pedagogical competencies of future professionals in the field of vocal art traditional singing. Vol. 1 No. 7 (2022): "Involta" Innovation Scientific Journal
6. Akbarova Mohigul Gulomovna. Brief recommendations and scientific conclusion for students studying arts. Interdiscipline innovation and scientific research conference.